

**ILMIY TADQIQOT ISHI BILAN SHUG'ULLANUVCHILARDA MAVZU  
DOLZARBLIGINI ASOSLASHNING TASDIQLASH USULIDAN FOYDALANISH  
KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH**

*Annotatsiya.* Ushbu maqolada ilmiy tadqiqot ishi bilan shug'ullanuvchilarda mavzu dolzarbligini asoslashning tasdiqlash usulidan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirishning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritilgan.

*Kalit so'zlar:* ilmiy yo`nalish, muammolar, mavzular, muammoni qo'yish va kundaliklar, esdaliklar, tarjimai hollar, tavsifnomalar, dalolatnomalar

**ФОРМИРОВАНИЕ У УЧАСТНИКОВ НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКОЙ  
РАБОТЫ УМЕНИЙ ИСПОЛЬЗОВАТЬ МЕТОД ПОДТВЕРЖДЕНИЯ  
ОБОСНОВАННОСТИ АКТУАЛЬНОСТИ ТЕМЫ**

*Аннотация.* В данной статье подчеркивается научная и практическая значимость формирования навыков контент-анализа и использования статистических данных у лиц, занимающихся научно-исследовательской работой.

*Ключевые слова:* научная направленность, проблемы, темы, постановка проблемы и ведение дневников, мемуаров, биографий, описаний, актов.

**FORMATION OF SKILLS IN USING THE CONFIRMATION METHOD OF  
SUBSTANTIATING THE RELEVANCE OF THE TOPIC IN THOSE WHO ARE  
ENGAGED IN SCIENTIFIC RESEARCH WORK**

*Annotation.* This article emphasizes the scientific and practical significance of developing skills in content analysis and the use of statistical data among individuals engaged in research work.

*Keywords:* scientific direction, problems, topics, problem putting and diaries, mementos, biographies, descriptions, testimonials.

Ilmiy bilish ilmiy muammoni hal qilish bilan bog'liqidir. Muammolarning bo`imasligi tadqiqotlarning to`xtab qolishi va fanning bir joyda qotib qolishiga olib kelgan bo`lur edi. Ilmiy tadqiqot ishlarida quyidagilar farqlanadi: *ilmiy yo`nalish, muammolar va mavzular*.

*Ilmiy yo`nalish* - fanning muayyan tarmogida yirik, fundamental, nazariy eksperimental masalalarni hal etishga bag'ishlangan jamoaviy ilmiy tadqiqot sohasi. Ilmiy yo`nalish quyidagi tuzilmaviy birliklarga bo`linadi: mujassama muammolar va muammolar, mavzular va masalalar.

*Muammo* - murakkab ilmiy masala bo`lib, hal etishni, tadqiq etishni talab qiladi. U muammoviy vaziyat natijasi hisoblanadi, bu mavjud eski bilimlar va empirik yoki nazariy tadqiqotlar natijasida yangidan topilgan bilimlar o`rtasida ziddiyat yuzaga kelishi tufayli hosil bo`ladi.

*Mavzu* - bu ilmiy masala bo`lib, tadqiqot talab qiluvchi muammolar muayyan sohasini qamrab oladi. U ko`plab tadqiqiy masalalarga - muammoning aniq bir sohasiga taalluqli ancha mayda ilmiy masalalarga asoslanadi. Masalani yoki masalani hal etishda muayyan tadqiqot vazifasi echiladi, masalan, yangi materialni ishlab chiqish, konstruktsiya, ilg`or texnologiya va h.k.lar ni yaratish. Bunda ularni bajarish faqat nazariy ahamiyat kasb etibgina qolmay, balki asosan kutilayotgan muayyan iqtisodiy samaraga ega amaliy ahamiyat ham kasb etadi.

Muammo va mavzuni tanlash qiyin va mas`uliyatli ishdır, u bir necha bosqichda o`z yechimini topadi. *Birinchi bosqichda*, muammoviy vaziyatdan kelib chiqib, muammo ifoda etiladi va kutilayotgan natija umumiy tarzda belgilanadi.

*Ikkinci bosqichda*, muammoning dolzarbligi, uning fan va texnika uchun ahamiyati aniqlanadi.

*Uchinchi bosqichda* muammo tuzilmasi ishlab chiqiladi: kichik mavzular, savollar va ular o`rtasidagi bog`liqlik farqlanadi. Natijada muammo daraxti shakllanadi.

*Keyinchalik*, muammolar asoslangandan, uning tuzilmalari ishlab chiqilgandan so`ng ilmiy xodim (yoki jamoa), qoidaga ko`ra, ilmiy-tadqiqot mavzuini mustaqil tarzda tanlaydi.

Ko`pincha mavzuni tanlash tadqiqotni olib borishdan ko`ra murakkabroqdir. Ilmiy tadqiqot mavzusiga bir qator talablar qo`yiladi.

Mavzu dolzarb bo`lishi, hozirgi paytda hal etishpi talab qilishi zarur. Fundamental tadqiqotlar bilan bog`liq mavzular dolzarblik darajasini belgilash uchun hozircha tegishli mezonlar yo`q. Shuning uchun, mazkur holda dolzarblikni yirik olim yoki ilmiy jamoa belgilaydi. Mavzuning amaliy tavsifiga kelsak, ularning dolzarbliги, qoidaga ko`ra, ishlab chiqarish muayyan tarmog`ining rivojlanish va iqtisodiy samaradorlik talablariga ko`ra belgilanadi.

Mavzu yangi ilmiy masalani hal etishi va ilmiy yangilik tavsifiga ega bo`lishi kerak.

Ilmiy mavzuga qo`yiladigan muhim talablar bo`lib iqtisodiy samaradorlik va ahamiyatlilik hisoblanadi. Amaliy tadqiqotlar bilan bog`liq mavzular tanlash bosqichida taxminiy belgilanadigan iqtisodiy samara berishi lozim. Fundamental tavsifdagi mavzuni tanlashda iqtisodiy samaradorlik mezoniga o`z o`rnini bo`shatib beradi.

Mavzu ilmiy yo`nalishiga mos bo`lishi kerak. Bu ilmiy jamoa malakasi va vakolatidan eng to`liq ravishda foydalanishga imkon beradi. Natijada ishlanmaning nazariy darajasi, sifati va iqtisodiy samarasini oshadi, tadqiqotning bajarilish muddati qisqaradi.

Joriy etilish mavzuning muhim tavsifi bo`lib hisoblanadi. Mavzuni ishlab chiquvchilar uni rejadagi muddatda tugatilish imkoniyatini belgilashlari va buyurtmachining ishlab chiqarish sharoitlariga joriy etilishini aniqlashlari kerak. Ular tegishli ishlab chiqarishni, uning hozirgi vaqtdagi va kelgusidagi talablarini yaxshi bilishlari kerak.

Mavzuni tanlash mamlakat va xorijiy adabiyot manbalarini ya`ni hal qilinayotgan masalaga bag`ishlangan bo`lishi talab etiladi. Adabiyotlar diqqat bilan o`rganib chiqishi kerak. Bu “velosipedni qayta kashf etmaslik” uchun, shuningdek zamonaviy ilmiy-tadqiqotlar yo`nalishini aniqlash uchun zarur.

Keyingi yillarda mavzuni tanlashda eksperiment baholash usuli keng qo`llanilmoqda. Buning ma`nosи shundaki, rejallashtirayotgan mavzu mutaxassis- ekspertlar tomonidan baholanadi. Har bir ekspert mavzularga qo`yiladigan tegishli talablarni ballarda baholaydi.

Muammoni qo`yish hali anglab etilmagan narsa yoki hodisaning mavjudligini anglatadi. Ayni vaqtda bu narsa yoki hodisa muayyan tarzda tavsiflangan, ajratilgan, ya`ni u haqida muayyan boshlang`ich bilim mavjud bo`lishi lozim.

Shunday qilib, muammoni bilish – bu alohida turdagи bilim: u «bilmaslik haqidagi bilim»dir.

Amaliyotda (ishlab chiqarish, ijtimoiy, tibbiy amaliyot va hokazolarda) va fanning o`zida yuzaga keluvchi muammoli vaziyatlar ilmiy muammolarning manbai hisoblanadi. Ilmiy muammoni qo`yish muammoli vaziyat tahliliga tayanadi, lekin bunday tahlilning o`zi bilangina belgilanmaydi. Muammo nafaqat aniqlanishi, balki ilmiy ta`riflanishi ham lozim. Buning uchun uni sub`yektiv, individual, ruhiy jihatlardan mumkin qadar tozalash va fan tilida ifodalash zarur.

Ilmiy tadqiqotlarning muayyan muammolari amaliyot va fanning rivojlanish tendentsiyalarini teran tushunishni talab etadi. Bu ulkan ahamiyat kasb etadi, chunki ilmiy tadqiqotlarning dasturlarini belgilaydi.

Katta va muhim muammolarning qo`yilishi fan tarmoqlarining rivojlanishini bir necha yillarga va hatto o`n yilliklarga belgilab berishi mumkin. Bunga mashhur

168

«Gilbert muammolari» - D.Gilbert 1900 yil matematiklarning Parijdagi xalqaro kongressida so`zlagan ma`ruzasida ta`riflab bergan va XX asr mobaynida matematikaning rivojlanish jarayonini belgilangan 23 muammo misol bo`lib xizmat qilishi mumkin.

Olim muammoni baholashi va u shug`ullanishga arziydimi, degan savolga javob berishi juda muhimdir. Predmetli bilimdan farqli o`laroq, muammolar haqiqiy ham, soxta ham bo`lishi mumkin emas. Ammo ularni boshqa mezonlar – muhimlik, dolzarblik, yechish mumkinligi (tadqiqotchilarni odatda muammoni mazkur vositalar bilan va mazkur muddatda yechish mumkin yoki mumkin emasligi to`g`risidagi masala juda qiziqtiradi) nuqtai nazaridan baholaydilar.

Muammoni qo`yish – har qanday ilmiy tadqiqotning dastlabki bosqichi.

Ammo muammo qo`yilganidan so`ng uni yechish metodlarini topish talab etiladi.

Ilmiy muammo. Har qanday ilmiy bilish muammodan boshlanadi. Umuman olganda, inson bilimining rivojlanish jarayonini ayrim muammolarni qo`yishdan ularni yechishga o`tish, so`ngra yangi muammolarni qo`yish sifatida tavsiflash mumkin. Biroq muammoning haqiqiy o`rni qanday? Ilmiy muammolar nima uchun yuzaga keladi? Muammoning masaladan farqi nimada? Ilmiy muammolar doirasi qanday?

Muammo – bilishning rivojlanish jarayonida ob`ektiv tarzda yuzaga keladigan, yechimini topish muhim amaliy yoki nazariy ahamiyatga ega bo`lgan masala yoki masalalar majmuidir. Shuningdek ilmiy muammo, hal qilishni talab etuvchi nazariy yoki amaliy masala; fanda – bironbir hodisalar, ob`ektlar, jarayonlarni tushuntirishda qarama-qarshi yondashuvlar ko`rinishida amal qiluvchi va uni echish uchun muvofiq nazariyani talab etuvchi ziddiyatlari holatdir.

Ijtimoiy taraqqiyotni bugun ilmiy-texnik kashfiyotlarsiz, ixtirolarsiz tasavvur etib bo`lmaydi. Inson mehnatini yengillashtirish va samaradorligini oshirish, ijodiy salohiyatini to`la ro`yobga chiqarish imkoniyatini beruvchi vositalar, mexanizmlar va shart-sharoitlar yaratish ilmiy-texnik taraqqiyotning bosh vazifasidir. Bugun jon-jahd va fidoyilik bilan mehnat qilish yetarli emas, mehnatni, faoliyatni ratsional tashkil etish, samaradorligini oshirish yo`llarini izlash muhimdir. Jamiyatga ilmiy aqliy quvvatlariga tayanib, mehnatni, faoliyatni oqilona uyuştirishga, ijtimoiy ehtiyojlarni to`la qondirishga qaratilgan usullarga, vositalarga tayanadigan, ushbu usullarni va vositalarni kashf etadigan shaxsler kerak. Shuning uchun ham tadqiqot mavzusini ilmiy-texnik rivojlanish maqsadidan kelib chiqib tanlash talab etiladi. Ilm-fan oldiga ijtimoiy-siyosiy tuzum ham o`z talabini qo`yadi. Ijtimoiy-siyosiy tuzum ichki institutlarini o`z maqsadiga muvofiq faoliyat olib borishini istaydi, aks holda tuzum bilan institutlar o`rtasida begonalashuv yuzaga keladi. Aniq strategik maqsadi va rivojlanish dasturiga, modeliga ega ijtimoiy-siyosiy tuzum barcha sohalarni institutlarni, shu jumladan ilm-fanni ham ana shu strategik maqsad va rivojlanish dasturiga, modeliga xizmat qilishga yo`naltiradi. Ushbu obyektiv, ijtimoiy talabga xizmat qilishga tayyor tadqiqotgina siyosiy tuzum tomonidan qo`llab-quvvatlanadi.

Iqtisodiy rivojlanish barcha davrlarda, barcha davlatlarda ilm-fan rivojlanishiga ta`sir etuvchi obyektiv omil bo`lib kelgan. Inson va jamiyatning moddiy ehtiyojlarini qondirish orqaligina ilm-fan, ilmiy izlanishlar o`zining ijtimoiy foydali mashg`ulot, faoliyat ekanini isbotlagan. Demak, ilmiy tadqiqot mavzusini tanlashda iqtisodiy rivojlanish omili unutilmasligi kerak.

Ilmiy tadqiqot o`tkazish ratsional tashkil etiladigan, o`ziga xos metodika va metodlarga ega ijodiy faoliyatdir. Uning ratsionalligi inson aqlu idroki va real hayotiy talablarni bilan bog`liqligida, metodikasi va metodlari esa, ilm-fanda qabul qilingan, ijodiyfaoliyatni samarali o`tkazishga yordam beradigan usullar vamexanizmlardan foydalanganadir.

Ilmiy izlanish murakkab, serqirra va ziddiyatli kechadigan jarayondir. Tadqiqotchi ichki va tashqi ta`sirlari ostida izlanish olib boradi, mazkur ta`sirlarni ilmiy maqsadga yo`naltirish oson emas. Ilmiy tadqiqot o`tkazish metodikasini egallagan, ilmiy metodlardan yaxshi xabardor va ularni qo`llay oladigan shaxs ko`zlagan maqsadiga erishadi, ilm-fan sohasida biror e'tiborli fikr ayta oladi. Ilmiy tadqiqot o`tkazishning asosiy maqsadi obyektning real holatini ideal holatga ko`tarish hisoblanadi. Mazkur maqsadga yetishning samarali yo`llarini, mexanizmlarini topish va jamiyatga taklif etish olimning vazifasidir. Mualliflar yosh tadqiqotchilarni o`z burchini obyektiv

bajarishga, buning uchun esa ilm-fanda shakllangan metodlarga tayangan holda ijodiy kreativ pozitsiyada turishga da'vat etadilar.

Ilmiy tadqiqot mavzusini tanlashgacha bo'lgan jarayonlarni tadqiqotchining «o'zini o'zi izlash», «o'zligini topish» davri deb atash mumkin. Bu davrda tadqiqotchi hali biror-bir mavzuni tanlashdan, uni biror muammo bilan bog'lashdan uzoq bo'ladi. Tajriba ko'rsatadiki, ilm sohasiga biringchi qadam tashlaganidayoq mavzu topib, uni biror muammo bilan bog'lay olgan tadqiqotchi deyarli uchramaydi. Demak, mavzu tanlashda ilm sohasidan, mavzuga oid izlanishlar va muammolardan yaxshi xabardor mutaxassisning yordami, maslahati zarur. Bunday mutaxassis mavzu tanlashga ta'sir etuvchi obyektiv omillardan xabardor bo'lgani uchun ham «ilmiy rahbar», «ilmiy maslahatchi», tadqiqotni ratsional olib borishni o'rgatuvchi «ustoz» deb ataladi.

Mavzuni tanlashga undovchi obyektiv omillar quyidagilardanI borat:

- ijtimoiy taraqqiyot talabi;
- ilmiy-texnik taraqqiyot talabi;
- iqtisodiy rivojlanish omili;
- madaniy yuksalish ehtiyoji.

Ilm-fanning ijtimoiy taraqqiyotga xizmat qilishi aksiomadir. Shuning uchun tanlanadigan mavzu ijtimoiy taraqqiyot maqsadlari vavazifalari bilan bog'liq bo'lishi zarur. Ijtimoiy taraqqiyot deganda umuminsoniy rivojlanish, umumbashariy qadriyatlarni asrash va ko'paytirish, ijtimoiy hayotni yanada insoniylashtirish, global muammolarni hal etish, insoniyat erishgan yutuqlarni, pozitiv tajribalarni yanada ko'paytirish nazarda tutiladi. Mazkur maqsad va vazifalarga xizmat qilish orqaligina ilm-fan, o'tkaziladigan tadqiqot, tanlanadigan mavzu pozitiv ahamiyat kasb etadi.

Tanlanadigan mavzu g'ayrimadaniy bo'lmasligi, ya'ni insoniyat tomonidan yaratilgan moddiy va ma'naviy boyliklarning pozitiv hodisa ekanligini inkor qilmasligi, hatto shubha ostiga olishi mumkin emas. Tanlanadigan mavzu madaniyatning pozitiv hodisaligi ni tasdiqlashi, moddiy va ma'naviy boyliklarni yanada ko'paytirish texnologiyasini ishlab chiqishi, aniq, ilmiy asoslangan yo'llarni ko'rsatishi zarur. Tadqiqotchining maqsad va vazifalari shaxsning ma'naviy-axloqiy fazilatlarini, ma'naviy-axloqiy tajribasini, qarashlarini ifoda etadi. Mavzu shunchaki nomlanish, hatto tadqiqot natijasigina emas, u tadqiqotchining ma'naviy-axloqiy pozitsiyasi hamdir.

Mavzuning dolzarbligini asoslash orqali tadqiqotchi muammoning davr, taraqqiyot, ilm-fan uchun qanchalik muhimligini isbotlaydi. Mavzuning dolzarbligini yuqoridagi obyektiv va subektiv omillar orqali asoslash mumkin. Mavzuning o'rganilmaganligi yoki kam o'rganilgani, muammoga oid ziddiyatli yondashuvlir, konsepsiylar yoki pastulatlar ilgari surilayotgani, u yoki bu hodisaning pozitiv natijalariga olib kelmayotgani, taraqqiyotga to'siq bo'layotgani, shaxs va jamiyat munosabatlariida «begonalashuv» hollarining paydo bo'layotgani, huquqiy normalarni deviant xulq-atvorga samarali ta'sir etolmayotgani dolzarb mavzular sifatida tadqiq etilishi mumkin. Biroq mavzu dolzarbligini asoslashda ilmiy izlanishlardan kelib chiqarilgan bitta pastulatga tayanish darkor. U – tadqiqot obyekti (predmeti)ning real holati bilan ideal holati o'rtasidagi qarama-qarshiliklardan kelib chiqishdir. Masalan, ob'ekt (inson) bugun, real holatida ikkita – o'zbek va rus tillarini biladi. Lekin u ideal holatida qirqta tilni bilishi, o'rganishi va ularda bemalol gaplashishi mumkin. Tadqiqot qanday sabablar, omillar insonning ideal holatga yetishiga to'siq bo'lmoqda, nimalar qilganda insonni ideal holatga yetkazish, tarbiyalash mumkin, degan savollarga javob izlashi darkor. Tadqiqot mavzusining dolzarbligini asoslayotganda obyekt (predmet)ning ideal holatga ketishiga g'ov bo'layotgan asosiy sabablar, omillar ko'rsatilishi zarur.

Tadqiqot obyekti (predmeti)ning real holati bilan ideal holati o'rtasidagi fundamental mushtaraklik uning (obyekt yoki predmetning) makon va zamonda mayjudligidir. Tadqiqot obyekti (predmeti) izlanishdan oldin ham makon va zamonda mayjud edi, u izlanishdan keyin ham makon va zamonda mayjud bo'lishi zarur. Lekin u real holatdan ideal holatga o'tganida sifatan o'zgarishi, ya'ni real holatida yo'q xislatlar, qarashlar, ko'nikmalar va aloqalarni o'zida shakllantirishi mumkin. Real holat ideal holatning antagonistisi emas, u ideal holatning

170 takomillashtirilishi zarur bo'lgan ko'rinishidir. Ideal holat ham real holatning antagonisti emas, u real holatning takomillashtirilgan ko'rinishidir. Biroq ijtimoiy taraqqiyot real holatni boricha, mavjudligicha qoldirolmaydi, uni takomillashtirmay, ijtimoiy taraqqiyot amalga oshmaydi. Ijtimoiy taraqqiyotning immanent qonuni real holatdagi g'ov, to'siq, konservativ qarashlarni ideal holatning ziddi, hatto raqibiga aylantirishi mumkin. Shuning uchun ham jamiyat bir ijtimoiy-tarixiy bosqichidan ikkinchi, ko'pincha ilgarigi bosqichga zid, qarama-qarshi bosqichga o'tayotganida real holatdagi mavjud to'siqlarni kuch bilan bartaraf etadi.

Ko'pincha tadqiqotchilar mavzu dolzarbligini asoslashda tasdiqlash usulidan foydalanadilar. Aslida muammo mavjudligini ta'kidlash ham konstatatsiya usulidir. Ammo, bizning fikrimizcha, mavzu dolzarbligini asoslashda nafaqat konstatatsiya, shuningdek, ziddiyatlarni keltirish, real holatdagi to'siqlarni sanash, ideal holatga yetishishning ijtimoiy zaruriyat ekanini ta'kidlash usulidan ham foydalanish maqsadga muvofiqdir. Chunki, ijtimoiy hayotning sotsiodinamik xususiyati mavzu dolzarbligini real holatdan ideal holatga borish yo'llarini izlash orqali asoslashga undaydi. Konstatatsiya usuli ko'pincha barqaror, turg'un narsalarni, amalga oshirilgan hodisalarni qayd etish bilan chegaralanadi. Tadqiqot obyekti (predmeti)ning real holatidan ideal holatiga borishi esa ijtimoiy taraqqiyotning sotsiodinamik xususiyatiga muvofiqdir, shuning uchun mavzu dolzarbligini asoslashga sotsiodinamik yondashish darkor.

Har bir ilm sohasida mavjud empirik tajribalarni, gnoseologik izlanishlar natijalarini jamlash, umumlashtirishga zaruriyat mavjuddir. Bunday ilmiy izlanish fundamental ahamiyatga ega bo'lib, u ilm sohasining real holatini, u duch kelayotgan nazariy, falsafiy, metodologik muammolar nimalardan iborat ekanini va uning rivojlanish yo'llarini, ideal holatga yetish bosqichlarini aniqlab olishga yordam beradi. Ilm sohasining bunday xususiy muammolarini o'rganish tadqiqotchidan katta gnoseologik tajriba va ilm-fanning falsafiy metodologik muammolaridan yaxshi xabardorlikni talab etadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Olimov T. H. (2019). SPIRITUAL AND MORAL ASPECTS OF THE FORMATION OF CIVIL CULTURE IN FUTURE SPECIALISTS OF HIGHER EDUCATION. *Theoretical & Applied Science*, (12), 662-665.
- 2.Olimov T. H. (2020). The image of a modern teacher in the formation of civic culture among future highly educated specialists. *Pedagogical skill-Bukhara*, 5.
- 3.Olimov T. H. (2019). Development issues of civil society and culture in the work of Eastern thinkers. *Pedagogical skill-Bukhara*, 2.
- 4.Olimov T. H. (2016). Formation of self-awareness in youth. *Social and humanitarian sciences in the educational system. Tashkent*, 4.
- 5.Olimov T. (2020). BO'LAJAK OLIY MA'LUMOTLI MUTAXASISLARDA FUQAROLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING AYRIM YO'NALISHLARI. *FAN, TA'LIM VA AMALIYOTNING INTEGRASIYASI*, 1(1), 20-27.
- 6.Xolboyeva, G., & Olimov, T. (2023). O 'SMIRLAR MA'NAVIYATINI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. *Ilm-fan va ta'lif*, 1(7).
- 7.Xolboyeva G., & Olimov, T. (2023). O'SMIRLARDA STRESSLI VAZIYATLARDA KOPING XULQ-ATVOR STRATEGIYALARI NAMOYON BO'LISHINING IJTIMOIY PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. *Ilm-fan va ta'lif*, 1(7).
- 8.Olimov T. THE ROLE OF NATIONAL SPIRITUALITY AND VALUES IN THE DEVELOPMENT OF CIVIL CULTURE IN FUTURE SPECIALISTS WITH HIGHER EDUCATION.